

Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Bugungi kunda ona yurtimiz, O'zbekistonimizning jadal taraqqiy etib, barcha sohalarda ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritayotganini, diyorimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta, farovon hayotni, fayz va qut-barakani xalqimiz avvalambor Yaratganimizning cheksiz marhamati sifatida shukronalik va rozilik bilan qabul qilmoqda.

Shu borada el-yurtimiz uchun ezgulik, saxovat, mehr-shafqat ramzi bo'lib kelayotgan muborak Ramazon oyining ma'naviy-ruhiy hayotimizdagi alohida o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda, jamiyatimizda mehr-oqibat, o'zaro ahillik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalqimizga mansub olijanob fazilatlarni, diniy-ma'rifiy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug'lash maqsadida:

1. 2016-yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 6-iyun kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari "Nuroniy" jamg'armasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda Ramazon oyini joylarda milliy an'ana va qadriyatlar, urf-odatlarimizga mos va uyg'un tarzda o'tkazish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Mazkur tadbirlarni o'tkazishda muqaddas Ramazon oyining mazmun-mohiyatida mujassam bo'lgan insoniylik, ma'naviy poklik, shukronalik fazilatlarini, muqaddas dinimiz arkonlarini e'zozlash, bugungi tinch va osuda hayotimizning qadriga yetish, odamlarni o'zaro yaxshilik qilishga, ahil va hamjihat bo'lib yashashga da'vat qilishga qaratilgan keng ko'lamli savobli amallar va targ'ibot ishlari tashkil etilsin.

Ushbu qutlug' oyda ehtiyojmand kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oilalar va mahallalarda mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash, buyuk allomalar, aziz-avliyolarimizning muqaddas ziyoratgohlarini obodonlashtirish bo'yicha olib boriladigan tadbirlarni yanada kuchaytirishga alohida ahamiyat berilsin.

3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti I.Karimov

Toshkent shahri,

2016-yil 1-iyun

[Havola:http://uza.uz/uz/documents/muborak-ramazon-oyini-munosib-tarzda-o-tkazish-to-g-risida-01-06-2016](http://uza.uz/uz/documents/muborak-ramazon-oyini-munosib-tarzda-o-tkazish-to-g-risida-01-06-2016)